

KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH VA UNING NAZARIY-PSIXOLOGIK**ASOSLARI**

Burxonova Malika Abdulkakimovna
Samarqand viloyati Payariq tumanidagi
67-maktab amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Kasbga yo'naltirish – shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida o'ziga nisbatan shakllanish jarayonini o'taydi, ya'ni kelajakda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib boradi. Mazkur maqolada kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy asoslarining hayotga tatbiq etilishi haqida bir qator ilmiy nazariy mulohazalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: Kasb-hunar, tarixiy qarashlar, yoshlar, ko'nikma, malaka, bilim, shaxs, sharoit, o'quvchi.

Kasbga yo'naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashning ilmiy-amaliy tizimi sifatida qarash lozim. U har bir shaxsning xam individual xususiyatlarini, xam xalk xujaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mexnat resurslarini to'laqonli ta'minlash, bozor iqtisodiyoti munosabatlari zaruratini xisobga olish kerak.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarni o'quvchilarning mexnat ta'lim darslarida olgan bilimlari, shakllangan ko'nikma va malakalari ularda mexnat qilishga umumiy tayyorgarlikni, xalq xo'jaligining aniq bir soxasida qo'llanishi vazifa qilib qo'yish lozim. Bundan tashqari, boshqa fan o'qtuvchilari xam o'rganilayotgan mavzu dasturlarini o'zgartirmasdan, ya'ni mantiqiy ketma-ketligiga ta'sir qilmasdan, ushbu fan xususiyatlarini xisobga olgan holda o'quvchilarni mexnat jarayonlari, mexnat turlari ko'rinishlari va texnologiyasi bilan tanishtirib borishlari bozor iqtisodiyoti tamoyillarini, respublikamizning iqtisodiy potentsialni ochib berishlari lozim.

Biz psixologlar umum ta'lim maktablari o'quvchilari bilan kasb tanlashga yo'llash bo'yicha ishlar olib borish jarayonida ularni zamonaviy ishlab chiqarish poletexnik asoslari, fan-texnika taraqqiyoti davrida sanoat va qishloq xo'jaligining rivojlanish istiqbollari, ishchi va xizmatchilarning mexnat faoliyati mazmunidagi tegishli o'zgarishlar bilan tanishtirish hamda ana shu masalalarni ishlab chiqarish muxitidagi korxonalar misolida aniqlashtirib berish lozim. Mehnat va kasbiy tayyorgarlik tizimi bevosita yoshlarning mexnat va kasb tarbiyasini, ta'limini kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yunaltirish ishlarini amalga oshiradigan ulkan ishlardan biri bulib, juda o'tmish taraqqiyotiga egadir. Xalqimizning millat, xalq, elat bo'lib shakllanishini mexnatsiz, kasblarsiz, hunarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Odamzod paydo bo'lishidan boshlab mexnat bilan shug'ullangan, turmush buyumlari yasagan yumushlar bajargan. Dastlab faqat kun kechirish uchun qilingan mexnat keyinchalik, kattaroq maqsadni,

boylik orttirish uchun amalga oshirilib xatto, 10- asrlarda yirik xarbiy qo`shinlarni, millionlab xalqlarni buyumlar, anjomlar bilan ta`minlay oladigan ishlab chiqarish soxalari darajasigacha taraqqiy etdi.

Psixologik ilmiy manbalardan ma`lumki, sharqning buyuk mutafakkirlari, allomalari deyarli barcha davrlarida o`z asarlarida, she`r va g`azallarida, adabiy meroslarida halol mexnatni, kasb-xunar egallashni muqaddasligini va zarurligini ta`kidlab, ulug`lab o`tganlar. Ulug bobokolonimiz A.Navoiy o`z g`azallarida yoshlarni ilm-xunar egallashga chaqiradi.

Ilm kasbini qildi to joni bor,

Hunar o`rgandi onga ki imkoni bor.

Bundan tashqari, Abunosir Al-Farobiy ham kishilarni xalol mexnat qilishga va kasb-xunar egallashga chaqiradi. Farobiyning fikricha, inson-“ojiz banda”, “hech narsaga qodir bo`lmagan mavjudot” emas, balki u eng oliy kamolot bo`lib, “aql-idrok ziyosiga ega, o`zi uchun zarar bo`lgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir”. Farobiy mexnat va kasb-xunar ko`nikmalarini va axloqiy fazilatlarni xosil qilish lozimligini ta`kidlab: “Agar kasb-xunar fazilati tug`ma bo`lganda, podsholar xam o`zlari istab va harakat qilib emas, balki podshoxlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo`lgan, tabiiyat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo`lib qolar edi.

Kasb-hunar fazilati tug`ma bo`lmas ekan, xalqlar va shaxar axllarida, axloq-odob, rasm-rusum, kasb-xunar, odat va irodani xosil qilishi uchun insondagi zo`r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo`l bilan: ya`ni ta`lim va tarbiya yo`li bilan hosil qilinadi. Ta`lim degan so`z xalqlar va shaxarlar o`rtasida nazariy fazilat va amaliy kasb-xunar fazilatlarini birlashtirish degan so`zdir” degan edi. Kasb-hunar egallashni ahamiyati to`g`risida qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ning asarlarida ko`ramiz. Uning fikricha bolaga yoshligidan biror kasb-xunarni o`rgatish lozim. Bola kasb-hunarni ma`lum darajada o`zlashtirib bo`lgandan so`ng o`z kasb-hunaridan hayotda foydalanish, ya`ni halol mexnat bilan mustaqil xayot kechirishga o`rgatish kerak. “Yoshlarga ilm bera borib, ularga hunar o`rgatmoq muxim ma`suliyatli ishdir. Hunar o`rganish birla yoshlar har qanday nojo`ya xatti-xarakatlardan xoli buladilar”, deb ta`kidladi. Hunarli bo`lishga chorlangan nasihatlar xozirgi kunda xam muxim qiymatga ega: Oltin olmaganu urgangin xunar,
Xunarning oldida xasdir oltin zar.

Sharq, Markaziy Osiyolik mutafakkirlar xamda o`zbek ma`rifatparvar shoirlari xam kasb-hunar egallashni ahamiyati tugrisida uz asarlarida qimmatli maslaxatlarni qoldirganlar, bu meros hozirgi kunda xam yoshlarni kasb-hunarga yo`naltirishda muxim ahamiyatga ega. Insoniyat tarixiy taraqqiyotida Sharqu-G`arbda xam, Amerikada xam yoshlarni kasb-xunar egallashlariga aloxida e`tibor bilan qaralgan. Ularni kasb-xunar egallashlariga otalik, ustozlik maslaxatlarini, yo`l-yo`riqlarini muntazam berib kelganlar. Rasman kasbga oid maslaxat idoralari asrimiz boshlarida paydo bo`la boshlagan.

Maktab psixologlarining hozirgi kasbga yo'naltirish ishlari xam insoniyat jamiyat taraqqiyotining extiyojlaridan kelib chiqqan va u xam jamiyat kabi o'z rivojlanish tarixiga ega ekanligi barchamizga ma'lum. Tabiiyki, kasbga yo'naltirish kasblar paydo bo'lishidan va demak unga extiyoj yuzaga kelishidan ilgari paydo bo'lishi mumkin emas edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Mannopov S. Ma'ruzalar matni. Mutaxassislikka kirish va ijtimoiy ish etikasi. Farg'ona 2007.
- 2."Bola va zamon" jurnali. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi. №4.2009
3. ziyonet.uz

